



TIL O'RGANISHDA METAKOGNITIV STRATEGIYALARNING ROLI

Raxmonqulova Shaxzoda Baxrom qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti – talabasi

Dadamirzayeva Mohidil G'ulomjon qizi – ilmiy rahbar

***Annotatsiya:** Til o'rganish zamonaviy ta'limda muhim o'rin tutadi. Tilni o'zlashtirish jarayonida o'quvchining bilimni mustaqil boshqarish qobiliyati muhim hisoblanadi. Metokognitiv strategiyalari – bu o'rganish jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash orqali samaradorligini oshiruvchi usullar bo'lib, til o'rganishni yanada osonlashtiradi. Ushbu maqola til o'rganishda metakognitiv strategiyalarning roli va ahamiyatini tahlil qiladi.*

***Kalit so'zlar:** Rejalashtirish, nazorat qilish, baholash, strategiyalar.*

***Annotation:** Learning a language plays an important role in modern education. In the process of acquiring a new language, the learner's ability to manage and control their own learning is crucial. Metacognitive strategies are methods that help learners increase the effectiveness of learning by planning, monitoring, and evaluating their own progress. This article analyzes the role and importance of metacognitive strategies in language learning.*

***Keywords:** Planning, monitoring, evaluating, strategies.*

***Kirish:** Zamonaviy dunyoda ta'lim jarayonlari o'rganuvchilarning faqatgina bilim olishlarini emas, balki, shunga munosib fikrlay olish, tahlil qilish, qaror qabul qilish, fikrlay olish kabi kompetensiyalarni talab emoqda. Ta'limda esa chet tilini o'rganish nafaqat kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish, balki o'quvchining mustaqil fikrlashi va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish bilan ham bevosita bog'liqdir. Til o'rganishda samaradorlikni oshiruvchi eng muhim omillardan biri – bu metokognitiv strategiyalardan to'g'ri foydalanishdir. Mmetokognitiv strategiyalar o'quvchining o'z o'rganish jarayonini ongli ravishda*



rejalashtirishi, nazorat qilishi va baholashi orqali tilni chuqurroq va tizimli o'zlashitirishga yordam beradi.

Metakognitivlik tushunchasi: Metakognitivlik bu o'z fikrlash jarayonlari haqida fikrlash, ya'ni o'zining bilish, o'rganish, eslash, muammoni hal qilish kabi kognitiv jarayonlarni anglash va nazorat qila olish qobiliyatlaridir. Bu "o'ylash haqida o'ylash" deb ham ataladi. Metakognitiv strategiyalar esa o'quvchilarga nima o'qiyotganlarini tushunishga, masalani yechish rejasini tuzishga va o'z xatolarini tuzatishga yordam beradi. Til o'rganishda metakognitiv strategiyalarning 3 turi mavjud:

1. Rejalashtirish strategiyalari (Planning strategy): Rejalashtirish - bu o'rganuvchining o'rganish jarayonini boshlashdan oldin o'z oldiga aniq maqsad qo'yishi, kerakli resurslarni tanlashi va vaqtni samarali taqsimlashidir. Bu strategiya o'rganuvchilarga nimani o'rganish kerakligini aniqlash, qaysi materiallar eng muhim ekanini tanlash, o'rganish bosqichlarini ketma-ketlikda rejalash, vaqtni to'g'ri taqsimlash imkonini beradi. Misol uchun, o'quvchi IELTS Writing uchun har kuni essay yozishni reja qiladi va uni tekshirish uchun ham aniq bir vaqt belgilaydi.

2. Nazorat qilish strategiyalari (Monitoring strategy): Nazorat qilish - bu o'rganish jarayonida o'rganuvchining o'z tushunishini, tezligini va xatolarini real vaqtda kuzatib borishdir. Bu strategiya orqali o'rganilayotgan maqola tushunilyaptimi yo'qmi tekshirib boriladi, noto'g'ri tushunchalar aniqlanib, o'qish tezligi moslashtiriladi hamda yangi o'rganilgan bilimlar oldingilari bilan taqqoslanadi.

3. Baholash strategiyasi (Evaluating Strategy): Baholash - bu o'rganish jarayoni yakunida erishilgan natijani, ishlatilgan metodlarning samaradorligini va o'z rivojlanish darajasini tahlil qilishdir. Bu strategiya orqali o'rganuvchilar o'zlarini mustaqil tekshirishadi, kamchiliklarini aniqlab, keyingi o'rganishlar uchun xulosa chiqarishadi.



Metakognitiv strategiyalar o'quvchini passiv o'rganuvchidan faol, ongli va mustaqil o'rganuvchiga aylantiradi. Bu esa til o'rganishda yuqori va barqaror natijaga olib keladi.

Metakognitiv strategiyalarning ahamiyati.

1) **O'rganish samaradorligini oshiradi:** Metakognitiv strategiyalar til o'rganish jarayonida o'quvchilarga o'z bilimni rejalashtirish, kuzatish va baholash imkonini beradi. Bu o'z navbatida o'rganish jarayonini passiv emas, balki faol va ongli qiladi va natijada yangi so'zlar, grammatik tuzilmalar va kontekstni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. 2) **Mustaqil o'rganishni rivojlantiradi:** Metakognitiv strategiyalar o'quvchiga o'z-o'zini nazorat qilish va refleksiya orqali mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi — ya'ni o'quvchi faqat o'rgatilyotgan narsani qabul qilmaydi, balki nima uchun va qanday o'rganayotganini anglaydi. Bu til o'rganishda juda muhimdir, chunki tilni o'zlashtirish davomiy jarayon bo'lib, har xil vaziyatlarda moslashuvchanlikni talab qiladi. 3) **Reading va comprehension (tushunishni) yaxshilaydi:** Metakognitiv strategiyalar, xususan predicting (oldindan taxmin qilish), self-questioning (o'ziga savol berish) va summarizing (qisqacha qayta aytish) orqali matnni tushunish ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Natijada o'quvchi murakkab matnlarni chuqur anglay oladi. 4) **Motivatsiya va tanqidiy fikrlashni oshiradi:** Metakognitiv strategiyalar o'rganishni faqat yodlashdan tushunishga va baholashga o'tkazadi. Bu esa o'quvchilarda motivatsiya va tanqidiy fikrlashni oshiradi, chunki ular o'z o'rganish jarayonini ongli boshqarishadi. 5) **Til ko'nikmalarining barqarorligini ta'minlaydi:** Til o'rganish jarayonida metakognitiv strategiyalar qo'llanilganda o'rgangan bilimlar qisqa muddatli xotiradan uzoq muddatli xotiraga o'tadi, chunki o'quvchi bilimni qayta ko'rib chiqadi, baholaydi va real hayotda qo'llaydi.

Xulosa. Metakognitiv strategiyalar til o'rganish jarayonida o'quvchining o'z bilim faoliyatini ongli ravishda boshqarishiga xizmat qiladigan eng muhim yondashuvlardan biridir. Ushbu strategiyalar orqali o'rganuvchi o'z o'rganish jarayonini rejalashtiradi, nazorat qiladi va baholaydi. Natijada ta'lim jarayoni



samaraliroq, tizimliroq va maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, metakognitiv strategiyalardan foydalangan o'quvchilar tilni tezroq va mustahkamroq o'zlashtiradi, o'z xatolarini tezroq aniqlaydi va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, chet tillarini o'rganishda bu strategiyalar o'quvchining motivatsiyasini oshiradi, o'qish, yozish, tinglash va gapirish ko'nikmalarining samarali rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli, metakognitiv strategiyalarni ta'lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish til ta'limi sifatini oshirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yuldasheva Gulmira Inomjanovna. (2025). Talabalarning o'zizni o'zi rivojlantirish strategiyalari.
2. <https://journals.org/index.php/tad/article/view/6348>
3. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17496915>
4. Gulyamova Mavluda Hamidovna, September 2024. O'qish qobiliyatini rivojlantirishda metakognitiv o'qish strategiyalarning o'rni.